ISSN 2181-2764
2026

SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-92 Pages: 898-906

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

THE PHENOMENON OF PAREMIOLOGY IN ARABIC CULTURE AND ITS HISTORICAL ASPECTS

Sharustam Shamusarov
Professor of Arabic Department of Tashkent state University of Oriental studies
shamusarov@yahoo.com
Tashkent,Uzbekistan

Shahnoza Abdullayeva
Lecturer at the Department of Languages-1 Oriental University
shahinazaabdullayeva@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Paremiology, muwallad proverbs, Arab-Persian literary relations, linguistic integration, cultural phenomenon, Oriental wisdom.

Received: 08.05.26
Accepted: 09.05.26
Published: 10.05.26

Abstract: This article is devoted to researching the role of ancient Oriental cultures, particularly Persian literary sources, in the formation of Arabic paremiology. Based on classical Arabic sources (works of Al-Maydani, Abu Hilal al-Askari, and As-Sa'alibi), the linguistic and historical nature of the concept of "amthal al-muwallada" (modern/generated proverbs) is analyzed. Through comparative-statistical methods, the study proves that the original roots of many Arabic folk proverbs trace back to Persian wisdom. The results demonstrate that the Arabic proverbial system is a product of cultural integration within the framework of a multi-ethnic Islamic civilization, rather than being solely based on ethnic Arabian experience.

ARABLARDA MAQOLSHUNOSLIK FENOMENI VA UNING TARIXIY JIHATLARI

Sharustam Shamusarov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Arabshunoslik oliy maktabi professori
shamusarov@yahoo.com
Tashkent,Uzbekistan

Shahnoza Abdullayeva
Oriental Universiteti
Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi
shahinazaabdullayeva@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Paremiologiya, muvallad maqollar, arab-fors adabiy aloqalari, lisoniy integratsiya, madaniy fenomen, Sharq hikmatlari.

Annotatsiya: Mazkur maqola arab paremiologiyasining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyatlari, xususan, fors adabiy manbalarining tutgan o‘rnini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Ishda klassik arab manbalari (Maydoniy, Abu Hilol al-Askariy, Sa’alibiy asarlari) asosida “amsal al-muvallada” (yangi maqollar) tushunchasining lisoniy va tarixiy tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ko‘plab arab xalq maqollarining asl ildizlari forsiy hikmatlarga borib taqalishi qiyosiy-statistik metodlar orqali isbotlangan. Natijalar arab maqollar tizimi nafaqat etnik arab tajribasi, balki ko‘p millatli islom sivilizatsiyasi doirasidagi madaniy integratsiyaning mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

ФЕНОМЕН ПАРЕМИОЛОГИИ У АРАБОВ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Шарустам Шамусаров
Профессор Высшей школы арабистики
Ташкентского государственного университета востокоиедения
shamusarov@yahoo.com
Ташкент, Узбекистан

Шахноза Абдуллаева
Преподаватель кафедры «Языки-1»
Ориентал университет
shahinazaabdullayeva@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Паремиология, пословицы-муваллад, арабо-персидские литературные связи, языковая интеграция, культурный феномен, восточная мудрость.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию роли древневосточных культур, в частности персидских литературных источников, в формировании арабской паремиологии. В работе на основе классических арабских источников (труды аль-Майдани, Абу Хилаля аль-Аскари, ас-Саалиби) анализируется лингвистическая и историческая природа понятия «амсаль аль-муваллада» (новые пословицы). В процессе исследования с помощью сравнительно-статистических методов

доказано, что корни многих арабских народных пословиц восходят к персидским изречениям. Результаты показывают, что система арабских пословиц является продуктом не только этнического арабского опыта, но и культурной интеграции в рамках многонациональной исламской цивилизации.

Kirish. Maqollar ifoda vositalarining eng go‘zal turlaridan biridir. Ular orqali inson qalbi ilm, tajriba va hayotiy haqiqatlarga yaqinlashadi, xayol va gumondan yiroq bo‘ladi. Shu jihatdan maqollar badiiy rivoyatlardan farq qiladi: rivoyatlar ko‘proq tasavvurga tayansa, maqollar hayotiy tajribaga suyanadi. So‘z aslida qalbda tug‘iladi, til esa qalbga yo‘l ko‘rsatuvchi vositadir. Shubha yo‘qki, maqol adabiyot unsurlaridan biri bo‘lib, u til boyligining muhim qismi sanaladi, xuddi she’riyat, notiqlik va boshqa nutq san’atlari kabi (al-Hanafiy, 1962, p. 3).

Mashhur va keng tarqalgan maqollar dastlab fasohatli, sof arab tili hukmron bo‘lgan davrda shakllangan. Keyinchalik tilga lahja unsurlari kirib kelib, ayrim og‘ishlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, maqollar o‘zining asl badiiy va ma’naviy qimmatini saqlab qolgan. Arab adabiyotida “muvallad” (keyingi davr) she’ri paydo bo‘lgani kabi, “muvallad maqollar” ham yuzaga kelgan (Ibid. – p. 4).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab paremiologiyasining tarixiy ildizlari va “amsal al-muvallada” (yangi maqollar) fenomenini o‘rganishda mumtoz arab filologiyasining xazinalari hisoblangan bir qancha fundamental asarlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, arab maqollarini tizimlashtirishda Abu Hilol al-Askariyning (920-1005 y.) “جمهرة الأمثال” asari muhim o‘rin tutadi, chunki unda maqollarning lisoniy tabiati va ijtimoiy konteksti chuqur tahlil qilingan (al-Askariy, 1988, j. Shuningdek, Abu Mansur as-Sa’olibiyning (961-1038 y.) “التمثيل والمحاضرة” asari arab va fors adabiy aloqalari natijasida yuzaga kelgan ibora va hikmatlarni o‘rganishda bebaho manbadir (as-Sa’alibiy, 2003, 9-b.). “Muvallad” (keyinchalik paydo bo‘lgan) maqollarning tarixiy va tahliliy jihatlarini yoritishda esa zamonaviy tadqiqotchilar Ahad Hasan Jabr Uvayd va Rahm Xuraybit Atiybaning al-Maydoniy asarlaridagi muvallad maqollarga bag‘ishlangan “الأمثال المولَّدة في مجمع الأمثال للميداني – دراسة تحليلية” nomli ilmiy ishlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi (Uvayd, 2024, 81-b.). Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o‘rganildi.

Natijalar. Arablarda maqolshunoslik fenomenining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u arablarning keng hududlarni zabt etishi va ko‘p millatli islom sivilizatsiyasining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Islomning dastlabki asrlaridayoq arablar Eron, Iroq, Shom, Misr, Shimoliy Afrika, Andalusiya, Hindistonning ayrim hududlari kabi yirik madaniy markazlar bilan to‘qnash

kelganlar. Bu hududlarda esa fors, oromiy, ivrit, yunon, hind va mahalliy berber xalqlariga mansub qadimiy donishmandlik an’analari, pand-u hikmatlar, maqol va masallar mavjud edi.

Mazkur tarixiy jarayon natijasida arab jamiyati nafaqat siyosiy va diniy jihatdan, balki madaniy va lingvistik jihatdan ham boshqa xalqlar bilan qorishdi. Shu jarayonda arab tiliga begona bo‘lmagan, ammo kelib chiqishi jihatidan arab muhitidan tashqarida shakllangan ko‘plab hikmatli iboralar va maqollar arab xalq nutqiga singib ketdi. Klassik arab manbalarida bunday maqollar “أمثال مولدة” (muvallad maqollar) nomi bilan tilga olinadi. Bu tushuncha arab paremiologiyasida muhim terminologik ahamiyatga ega bo‘lib, u maqollarning tarixiy va madaniy kelib chiqishini aniqlashga xizmat qiladi.

Arablarda maqolshunoslik fenomeni aynan shu nuqtada namoyon bo‘ladi, arab maqollari tizimi faqat arab etnik tajribasining mahsuli emas, balki islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan ko‘p millatli madaniyatning natijasidir. Fors pand-nomalari, ivrit va oromiy donishmandlik an’analari, yunon falsafiy hikmatlari hamda ayrim hind va berber unsurlari arab maqollari tarkibiga turli darajada singib, ularning semantik va obrazli tizimini boyitgan. Bu holat arab maqollarining mazmunida aniq aks etadi: ayrim maqollar tarixiy voqealar (Ummaviylar va Abbosiylar davridagi siyosiy ziddiyatlar), diniy-firqaviy oqimlar (Qadariyya va boshqa firqalar), etnik guruhlar (zuttlar, yahudiylar, nasroniylar), shuningdek, muayyan geografik hududlar (Shom, Iroq, Abadon, Vosit va boshqalar) bilan bog‘liq holda shakllangan. Bunday maqollar arab jamiyatining o‘zgarib borayotgan ijtimoiy tuzilmasini va ko‘p millatli muhitda shakllangan umumiy ongini aks ettiradi.

Qadimgi arab maqollari manbalarida “amsal muvallad” (أمثال مولدة) yoki muvallad maqollar degan atama uchraydi. Bu Abbosiylar (VIII asr o‘rtalari – XIII asr o‘rtalari) davrining ilk asrlarida paydo bo‘lgan hikmatli so‘zlar bo‘lib, arab bo‘lmagan xalqlar bilan madaniy va irqiy aralashuv natijasida arab tiliga kirib kelgan iboralardir. Shuning uchun ular lug‘aviy va nahviy jihatdan arab tilida aslga ega bo‘lmagani bois, arab tili nuqtayi nazaridan qat’iy ishonchli hisoblanmaydi (Sabziyanpour, 2011, pp. 55-77). Ibn Manzur “Lisan al-Arab” asarida “muvallad” so‘zi haqida shunday deydi:

المُوَلَّدُ مِنَ الكَلامِ سُمِّيَ مُوَلَّدًا إِذَا اسْتَحْدَثُوهُ وَلَمْ يَكُنْ مِنْ كَلَامِهِمْ فِيمَا مَضَى .

Nutqda muvallad deb shunga aytiladiki odamlar uni keyinchalik foydalangan bo‘lsalar va u qadimgi arab matnlarida bo‘lmasa (Ibn Manzur, 1956, p. 915).

Abu Hilol al-Askariy o‘zining mashhur “Jamharat al-Amsal” asarida arab maqollarining keng to‘plamini jamlash bilan birga, ularning lingvistik va tarixiy tabiatiga doir muhim kuzatuvlar ham beradi. Asarda qadimiy (جَاهِلِيّ), islomiy (إسلامي) va muvallad (مولد) maqollar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatib o‘tiladi. Askariyning tasnifiga ko‘ra, muvallad maqollar bu qadimgi fasohat davriga mansub bo‘lmagan, balki, Islomdan keyingi shaharlik madaniyati, umumiy xalq tili (كلام العامة),

noarab xalqlarning lug‘aviy ta’siri, yangi ijtimoiy-tarixiy voqealar natijasida shakllangan maqollardir. “Jamharat al-Amsal” asarida muvallad maqollarning mavjudligi shuni ko‘rsatadiki: Arab tilining maqollar tizimi qat’iy to‘htab qolmagan, balki ijtimoiy hayot bilan birga o‘zgargan, xalq tilidagi iboralar yozma adabga ko‘tarilgan, arab bo‘lmagan madaniyatlar (fors, suryoniy va boshqalar) ta’siri mavjud.

Bu jihatlar Askariy asarini faqat adabiy emas, balki sotsiollingvistik manba sifatida ham qadrli qiladi. Abu Hilol Askariy ushbu maqollarni ‘Jamhara al-Amsal”da qayd etib, ularning bir nechtasida bular fasohatli qadimiy arab maqollaridan emas, balki muvalladlar so‘zidan ekanini ta’kidlaydi. Quyidagi maqollarni keltrib o‘tgan:

أشأمُ من زُحل

(al-Askariy, 1988, p. 244). Zuhaldan[1] ham baxtsiz.

أغرُّ من قنوع

Qanu’dan ham beg‘ubor.

أكْذَبُ مَنْ فَاخِتَةِ

(al-Askari, 1988, p. 173). Faxita[2]dan ham yolg‘onchi.

Bunday maqollar qadimgi maqollardan keyin paydo bo‘lgan bo‘lib, hijriy IV asrdan boshlab jamlanib, eski maqollar qatoriga qo‘shilgan. Keyinchalik esa ular qadimgi maqollar bilan yonma-yon qo‘llanadigan darajaga yetdi (Uvayd, Atiyba, 2024, p. 81).

Qadimgi arab adabiyotida “xalq maqollari” (أمثـال العامّـة) nomi bilan mashhur bo‘lgan maqollar ham bor. Ularning muhim qismi eronliklarning hikmatlaridan kelib chiqqan bo‘lib, arablar bilan etnik aralashuvdan so‘ng arab adabiyotiga o‘tgan. Bu fikrning dalillaridan biri shuki: Abshihiy va Sa‘olibiy o‘z asarlarida “muvalladlar” (المولّدين) va “xalq maqollari” (العامة) atamalarini yonma-yon keltirganlar. Bu esa ularning mohiyatan bir-biriga yaqin ekanini ko‘rsatadi. Sa’alibiy kitob haqida shunday deydi: “Bu kitobda islomiy va johili zamon hikmatlari, arabiy va ajamiy (ya’ni g‘ayri arab) maqollar, podshohlar va bozorchilar so‘zlari, xoslar va umum xalq iboralari jamlangan. Unda maqollarga o‘xshash barcha iboralar, nafosatli nasr namunalaridan tortib nazm durdonalarigacha, jiddiy hikmatlar ham hazil-mutoyibalar ham mujassamdir. Sa’olibiy kitobning mazmunini yanada sharhlab, shunday deydi: “Unda Qur’on, Tavrot, Injil va Zaburdagi ibratli o‘xshatishlar, Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning hikmatli so‘zlari, undan oldingi payg‘ambarlarning kalomlari, sahoba va tobeinlarning so‘zlari, arab va ajam maqollarining durdonalari, ularning ma’nodosh va uyg‘un misollari jamlangan (as-Sa’olibiy, 2003, p. 9).

[1] Zuhal (Saturn) qadim astronomiyada “nahs” — balo, falokat yulduzi sanalgan

[2] Arab adabiyotida ramziy obraz bo‘lib, ortiqcha bo‘rttirib gapiradigan, yolg‘on da’vo qiladigan ayol sifatida tilga olinadi.

“At-tamsiyil va al-muḥaḍarah” arab adabiyotidagi eng boy, eng rang-barang maqol to‘plamlaridan biri bo‘lib, unda arab va arab bo‘lmaganlardan kirib kelgan maqollar, xalq orasida tarqalgan iboralar, diniy manbalar asosidagi o‘xshatishlar, ham jiddiy, ham hazilona hikmatlar bir joyga jamlangan.

Arab manbalarida ayrim arab maqollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri fors maqollaridan olingani qayd etilgan. Shuningdek, ayrim arab tarjimonlari ba’zi fors maqollarini arab tiliga tarjima qilmasdan, asl forsiy shaklida keltirganlari ham ma’lum. Hatto ayrim manbalarda ayrim fors maqollari hech qanday o‘zgarishsiz, aynan fors tilidagi shaklida berilgan. Bag‘dod maqollari to‘plamida ayrim fors maqollari aynan o‘z shaklida keltirilgan.

Islomdan keyingi arab adabiyotidagi yangi yaratilgan maqollarning katta qismi aslida arab tilidan bo‘lmagan (g‘ayri arabiy) muhitlardan, jumladan Eron adabiyotidan kelib chiqqan. Arab adabiyotidagi ushbu ko‘p ming yillik tarixiy qatlamning shakllanishida Eron madaniyatning kuchli izi bor. Maqollarni muallifini aniqlash yoki ularning kelib chiqishini belgilash uchun maxsus mezonlar mavjud. Muvallad (yangi) maqollarni aniqlashning eng asosiy mezoni shuki, ular arab jamiyatida mashhur bo‘lgan davrga qadar Eron adabiyotida yoki boshqa arab bo‘lmagan muhitlarda mavjud bo‘lgan bo‘lishi kerak.

Sa’labiy quyidagi maqolni “xalq maqoli” deb bergan:

لا يَعلَمُ مَا فِي الخُفِّ إلا اللهُ وَالإسكاف

(as-Sa’alibi, 2003, p. 20).

Poyabzalda nima borligini faqat Xudo va etikdo‘z biladi. Bu maqolni Rog‘ib Isfahoniy forsiydan arabchaga tarjima qilingan she’r deb hisoblaydi. She’rda shunday deyiladi:

فَانْظُرْ لِذَاك فَليسَ يَعلَمُ كُلُّ مَا فِي الْخُفِّ غيرُ اللهِ وَالإسكافِ

(al-Rag‘ib al-Isfahoniy, 1420 AH, p. 20).

Bunga nazar solgin, etik ichida nima borligini Alloh va etikdo‘zdan boshqasi bilmas. Demak, bu ibora xalq orasidan kelgan bo‘lib, asl manbasi fors hikmatlaridir.

Joḥiz “al-Maḥasin va al-adad” asarida quyidagi maqolni xalq maqoli deb beradi(Sabziyanpour, 2011, p. 43):

كَلْبٌ طَائِفٌ خيرٌ مِنْ أَسَدٍ رابِضٍ

Aylanib yurgan it — o‘tirib olgan sherdan yaxshidir.

Zamakhshariy buni Sosoniylar asridagi asolarning sopiga yozilgan hikmatlardan biri deb eslatadi. Bu esa uning ajam manbali ekanidan darak beradi (Ibid. – p. 43)

مَنْ نَهَشَتْهُ الْحَيَّةُ حَذِرَ الرَّسِنَ الأبلقَ

Ilon chaqqan odam qora-oq arqondan ham qo‘rqadi.

Bu mashhur maqolni Maydoniy “xalq maqoli” sifatida Abu Ubayddan keltiradi. Shuningdek, shoir ham shunday degan:

إِنَّ اللَّسِيعَ لَحَاذِرٌ مُتَوَجِّس / يَخْشَى وَيَرْهَبُ كلَّ حبلٍ أبلقَ

“Kimni ilon chaqqan bo‘lsa, u ola-bula arqondan ham hayiqadi”

Ammo Rog‘ib-Isfahoniy bu baytni forsiydan arabchaga tarjima qilingan, deya qayd etadi.

Johiz o‘zining “ar-Rasa’il” asarida shunday deydi: “Men Kitab Dam Axlaq al Kuttab asarida Ibn Qutayba uslubidan foydalangan holda, Eron donishmandlaridan meros bo‘lib kelgan ko‘plab naqliy misollarni keltirdim” U yana aytadi: “Men bu kitobni yozar ekanman, Undagi donishmandlik, hikmat, tarbiya va axloqiy pandlar orasida eng go‘zal namunalarni topdim” Uning fikriga ko‘ra: Eron donishmandlarining ko‘plab nasihatlari va hikmatlari arab adabiyotiga kirib kelgan. Bu hikmatlar arab yozuvchilari, adabiyot ahli va siyosiy arboblar tomonidan qadrlangan (Sabziyanpour, 2011, pp. 55-77).

G‘unaymiy Hilol shunday hisoblaydi: hikmat yozuvi (pandnoma, nasihatnoma) janri qadimgi eroniylar orqali arab tiliga kirib kelgan. Bu adabiy janr arablar orasida ommalashishi qadimgi eroniylarning kuchli ta’siri natijasidir…(Hilol, p. 221).

Ruhiy Bek Xolidiy ham shunga o‘xshash fikr bildiradi. Uning nazarida, eroniy pand-nasihat oqimi arab madaniyatiga boshqa barcha xalqlarga qaraganda ko‘proq ta’sir ko‘rsatgan. U buni shunday izohlaydi: “Ilm va hikmatga oid kitoblar besh tildan fors (pahlaviy), hind, yunon, suryoniy va ibroniy tillaridan tarjima qilingan bo‘lsa-da, bu adabiy yo‘nalish bo‘yicha eng kuchli va eng sermahsul oqim fors oqimidir. Fors ta’siri xorijiy oqimlar ichida eng qudratlisi va eng samaralisidir (Sabziyanpour, 2011, p. 39).

Adam Metz shunday deydi: “Umaviylar davrining oxirida arab madaniyatiga kirib kelgan donishmandlar so‘zlari va hikmatlarning asosi — eroniy pandlar bo‘lgan (Metz, 1946)”

Arab adabiyotiga eroniy fikr va madaniyatning ta’siri naqadar chuqur va keng bo‘lganini anglash uchun shuni bilishning o‘zi kifoya: Askariyning aytishicha, Solih ibn Abd al-Quddus o‘z she’rlarida mingdan ortiq fors hikmatlarini joylashtirgan. Fors va arab xalqlarining azaliy madaniyati, buyuk adabiy merosi, keng hududlarda o‘z til va madaniyatini yoyishi, eng muhimi ulkan diniy sivilizatsiya bo‘lgan islom dini bilan bog‘liq holda bir-biriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Til va adabiyot bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lganidan, arab va fors adabiyotlari islomdan avval ham, islomdan keyin ham uzoq tarixiy davrlar davomida juda yaqin munosabatda shakllanib kelgan. Islomning kirib kelishi va Arablar fathidan so‘ng, bu o‘zaro ta’sir yanada kuchaydi va yangi adabiy janrlar, jumladan maqollar, o‘ziga xos tarzda boyidi (Shahrisi, p. 234).

Eroniy kelib chiqishi aniq bo‘lgan muvallad maqollar ayrim arab manbalarida ular muvallad (arab bo‘lmagan, keyinroq kirgan) sifatida tilga olingan, ammo boshqa manbalar ularni boshidan-oxirigacha fors (eroniy) hikmatlar deb qat’iy e’tirof etgan.

الشَّغْلُ مَحْمَدَةٌ وَالْفِرَاغُ مَفْسَدَة.

Mehnat maqtovga loyiq, bekorchilik fitnadir.

Maydoniy bu maqolni muvallad deb belgilagan. Rog'ib Isfahoniy bu iborani Buzurgmehr hikmatlaridan biri, deb ko'rsatgan. Demak, kelib chiqishi forsiy, keyinchalik arab adabiyotiga kirgan.

مَلِكٌ غَشُومٌ خَيْرٌ مِنْ فِتْنَةٍ تَدُومُ.

Zulmkor podshoh — davomli fitnadan yaxshidir.

Maydoniy bu muvallad deb qayd etgan. Sa'olibiy bu hikmatni Ardashir Bobakonning so'zlaridan, deb ko'rsatgan. Bu ham aslida eroniy siyosiy hikmat bo'lib, arab manbalariga keyin kirgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, ko'plab muvallad maqollar aslida forsiy hikmatlar bo'lib, arab tiliga tarjima orqali o'tgan. Maydaniy ularni til unsuri nuqtai nazaridan muvallad deb baholagan.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, arab maqollarining shakllanishi faqat islomdan avvalgi Arabiston muhitiga taqalib qolmaydi, balki qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan uzoq davom etgan til va madaniy aloqalar natijasida yuzaga kelgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Hijriy I asrdan boshlab Yaqin Sharqda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, shahar madaniyatining kengayishi hamda mahalliy lahjalarning rivojlanishi arab maqollarining semantik va uslubiy qatlamini sezilarli darajada boyitdi. Shu jarayonda arab tilidagi hikmatli iboralar qadimgi oromiy, ivrit va ayniqsa fors hikmat an'analari bilan o'zaro ta'sirga kirishib, yangi ma'no qatlamlari bilan boyidi. Arab maqolshunosligi fenomenini o'rganish, bir tomondan, arab tilining tarixiy rivojlanishini yoritishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, arab-islom sivilizatsiyasining boshqa xalqlar madaniy merosini qanday qabul qilgani va o'zlashtirganini ko'rsatadi. Arab maqollari bu jarayonda o'ziga xos "madaniy ko'prik" vazifasini bajargan bo'lib, ular orqali turli xalqlarning donishmandlik tajribasi arab tilida qayta shakllangan va yangi mazmun kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Hilal al-Askari, al-Hasan ibn Abd Allah. (1988). Collection of Proverbs. Jamhara al-Amthal. Edited by: Muhammad Abu al-Fadl Ibrahim and Abd al-Majid Qatamish. – Beirut–Cairo: Dar al-Jil / Dar al-Fikr al-Arabi. – Vol. 2. (in Arabic)

2. Adam Mez. (1946). Islamic Civilization in the Fourth Century AH. Hadarat al-Islam fi-l-qarn al-rabi' al-hijri. Translated by: Muhammad Abd al-Hadi Abu Rida. – Cairo: Lajnat at-Ta'lif wa-t-Tarjama wa-n-Nashr. (in Arabic)

3. al-Hanafi, Jalal. (1962). Baghdadi Proverbs. al-Amthal al-Baghdadiyya. – Baghdad: Matba'at As'ad. – Vol. 1. – 3 p. (in Arabic)

4. al-Raghib al-Isfahani, Abu al-Qasim Husayn ibn Muhammad. (1420 AH). Lectures of Scholars and Conversations of Poets and Eloquents. Muhadarat al-Udaba wa Muhawarat al-Shu'ara wa-l-Bulagha. Edited by: Umar al-Tabba. – Beirut: Sharikat Dar al-Arqam. – 20 p. (in Arabic)

5. al-Tha'alibi, Abu Mansur Abd al-Malik ibn Muhammad. (2003). Representation and Lecture. At-Tamsil wa-l-Muhadara. Edited by: Dr. Qusay al-Husayn. – Beirut: Dar wa Maktabat al-Hilal. – 9 p. (in Arabic)

6. Awayd, Ahd Hasan Jabr; Atiyba, Rahm Khuraybit. (2024). Muwallad Proverbs in al-Maydani's Collection of Proverbs – An Analytical Study. Al-Amthal al-muwallada fi Majma' al-Amthal li-l-Maydani – dirasa tahliliyya. – Tasnim International Journal of Humanities and Law. – Vol. 3, Issue 1. – 81 p. (in Arabic)

7. Ghunaymi Hilal, Muhammad. Comparative Literature. Al-Adab al-Muqarin. 5th Edition. – Beirut: Dar al-Awda wa Dar al-Thaqafa. – 221 p. (in Arabic)

8. Ibn Manzur, Jamal al-Din Muhammad ibn Mukarram. (1955–1956). Arabic Language Dictionary. Lisan al-Arab. Edited by: Abd Allah Ali al-Kabir, Muhammad Ahmad Hasab Allah, and Hashim Muhammad al-Shadhli. – Beirut: Dar Sadir. – Vol. 3. (in Arabic)

9. Sharustam Shamusarov. (2022). Poetics of Arabic Fairy Tales. Germany: Lambert Academic Publishing.,202p.

10. Simin Akram Shahrisi. A Comparative Study of Proverbs and Folk Wisdom in Iraq and Iran. Dirasa muqarina li-l-amthal wa-l-hikam al-sha'biyya fi-l-Iraq wa Iran. In: Collection of Articles of the First International Conference on Shared Heritage between Iran and Iraq. – 234 p. (in Arabic)

11. Vahid Sabziyanpour. (2011). The Influence of Iranian Culture and Literature on Arabic Literature: A Case Study (Muwallad Proverbs). Ta'thir-e farhang va adab-e Irani dar adab-e Arabi: motale'e-ye moredi (amsal-e movallad). – Journal of Persian Language and Literature Research. – No. 23, Vol. 3. – 43 p. (in Persian)